

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA KODEKSINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 17-noyabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2015-yil 3-dekabrda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining **Bojxona kodeksi** tasdiqlansin.

2-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2016 va 2017-yillar mobaynida:

O'zbekiston Respublikasi **Bojxona kodeksi** normalarining amal qilishi va samaradorligi muntazam ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishini ta'minlasin;

zarur bo'lgan hollarda, O'zbekiston Respublikasi **Bojxona kodeksining** ayrim normalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni belgilangan tartibda kirtsin.

3-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2016-yil 20-yanvar,
O'RQ-400-son

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 3(I)-son, 31-modda)